

ERTA YOSHDAGI O'QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR

*QAYNOATOVA ZAYNURA SHAVKATOVNA
 SAMARQAND VILOYATI SAMARQAND TUMANI
 30-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI
 BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHISI*

Annotatsiya: Ushbu maqolada erta yoshdagi o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish muammolari va ularni hal etish yo'llari tahlil qilinadi. Tanqidiy fikrlash – bu mustaqil, mantiqiy va asosli qaror qabul qilishga, muammolarga turlicha yondashishga imkon beruvchi muhim kompetensiyadir. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lif bosqichida bu ko'nikmalarni rivojlantirish, asosan, o'quv metodlari, o'qituvchining yondashuvi hamda o'quv muhitiga bog'liq. Maqolada bu boradagi asosiy to'siqlar – an'anaviy yondashuv, metodik vositalarning yetarli emasligi, ota-onalarning xabardorlik darajasi kamligi kabi omillar yoritiladi. Shuningdek, interaktiv metodlar, ijodiy topshiriqlar va muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan darslar orqali tanqidiy fikrlashni shakllantirishga doir amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, erta yosh, o'quvchi, ta'lif, metodika, muammo, yechim, interaktiv metodlar, mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv

“DEVELOPING CRITICAL THINKING IN EARLY-AGE LEARNERS: CHALLENGES AND SOLUTIONS”

*QAYNOATOVA ZAYNURA SHAVKATOVNA
 PRIMARY SCHOOL TEACHER
 SCHOOL NO. 30, GENERAL SECONDARY EDUCATION
 SAMARQAND DISTRICT, SAMARQAND REGION*

Annotation: This article analyzes the challenges and solutions in developing critical thinking skills among early-age learners. Critical thinking is an essential competency that enables individuals to make independent, logical, and well-reasoned decisions and to approach problems from multiple perspectives. The development of these skills in preschool and primary school students largely depends on teaching methods, the teacher's approach, and the learning environment. The article highlights key obstacles such as traditional teaching approaches, lack of methodological resources, and low awareness among parents. It also provides practical

recommendations on fostering critical thinking through interactive methods, creative tasks, and problem-based learning activities.

Keywords: critical thinking, early age, learner, education, methodology, problem, solution, interactive methods, independent thinking, creative approach.

ERTA YOSHDAGI O'QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR

Tanqidiy fikrlash – bu bolaning har qanday ma'lumotni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilmasdan, uni tahlil qilishi, savol berishi, taqqoslash va shubha qilish orqali fikr yuritishidir. Ya’ni, bola nimagadir ishonishdan oldin uni o‘ylab ko‘radi, sababini tushunishga harakat qiladi.

“Taqidiy fikrlash” atamasi ilk bor XX asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan. Mazkur tushuncha haqida tafsilot berishdan oldin, muayyan fikrlash ko‘nikmalari ustida to‘xtalish maqsadga muvofiqdir. Chunki fikrlash ko‘nikmalari o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni tarkib toptirish uchun nihoyatda zarurdir. Ta’lim jarayonida “tanqidiy fikrlash” atamasidan foydalanish amerikalik faylasuf Jon Dyuiga (1910-yil) borib taqaladi, u ko‘proq uni “reflektiv fikrlash” deb atagan. U shunday ta’rif berdi: “Har qanday e’tiqod yoki bilimning taxminiy shaklini uni qo‘llab-quvvatlovchi asoslar va u moyil bo‘lgan keyingi xulosalar nuqtayi nazaridan faol, qat’iyatli va diqqat bilan ko‘rib chiq” va bunday mulohaza yuritish odatini ilmiy nuqtai nazar bilan aniqladi. Jon Dyui tanqidiy fikrlashni ta’limning yakuniy intellektual maqsad deb bildi. Uning fikricha: “O‘quvchilar muayyan muammo bilan shug‘ullana boshlasalarga, ularda tanqidiy fikrlash paydo bo‘ladi. Shu sababli, ta’lim jarayonining boshlang‘ich nuqtasi hisoblangan, biror vaziyat yoki hodisaga tegishli bo‘lgan eng muhim savol bu hodisa qanday muammoni vujudga keltirishini anglatadigan savoldir. Faqatgina muayyan muammo bilan kurashib, murakkab vaziyatdan chiqish uchun o‘zining shaxsiy yo‘lini izlagandagina, o‘quvchi haqiqatan ham fikrlaydi”. Darhaqiqat, rejali va maqsadli o‘qitish va tarbiyalash jarayonida o‘quvchilarning intellekt darajasini aniqlash zaruriyati tanqidiy fikrlashni shakllantirishni vujudga keltirgan. O‘z ibtidosida bu natijalar oddiy pedagogik metodlar orqali aniqlangan.

Bugun biz demokratik jamiyatda yashayapmiz va bu jamiyatda yoshlarning faol hayoti tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan vazifalarni bajara olish va muayyan maqsadga erishish uchun zarur ma'lumotlarni topish va o‘z ustida ishlashi talab qilinadi va kuzatib boriladi. «Taqidiy fikrlash yangi, chuqur g‘oyalar sinovdan o‘tkazilganda, baholanganda, ishlab chiqilganda va qo‘llanilganda yuzaga keladi», deydi Devid Kluster. Devid Kluster tanqidiy fikrlashni quyidagicha ta’riflaydi. Tanqidiy fikrlash - shaxsiy fikrlash. Tanqidiy fikrlash savol va muammolarni

aniqlashdan boshlanadi. Tanqidiy fikrlash inson hayoti davomida duch kelgan vaziyatlarda o‘z yechimini topadigan va uni turli misollar bilan tasdiqlaydigan aniq dalillarga intiladi. Tanqidiy fikrlash - bu ijtimoiy fikrlash demakdir.

Savol berish va izlanishni davom ettirish bilim va har qanday rivojlanishning mohiyatidir. E.Dakovit o‘z kitobida shunday deydi: “Yorqin g‘oyaning paydo bo‘lishi intellektual rivojlanish ko‘rsatkichidir”. Pedagogikaning asosi bolaning o‘z fikrlarini yaratishi va o‘zini yaxshi his qilishi mumkin bo‘lgan muhitni yaratishdir. Va Dyuining asosiy g‘oyalari: o‘quvchini o‘quv dasturi bilan integratsiya qilish. (Kim? - O‘quvchining o‘zi! O‘qituvchi faqat bunga sharoit yaratadi.) Dyuining ta’lim tamoyili ikki tomonlama: bir tomonidan, mavzuning yangi mavzusidan malakali foydalanish orqali tajribani to‘ldirish, ikkinchi tomonidan, xarakterning axloqiy xarakterini, ayniqsa intellektual, hamkorlikdagi fikrlashni rivojlantirish. G‘oyalarni g‘isht kabi mustahkamlab qurish mumkin emas ular vaziyat va hodisaga qarab o‘zgarib turadi. G‘oyalalar har doim sinov va xato orqali o‘zlashtiriladi va rivojlanib boriladi.

Nega bu yoshda tanqidiy fikrlash muhim? Chunki bola atrofdagi hodisalarni anglashni o‘rganadi. Har xil vaziyatlarda o‘z fikrini ayta olishga o‘rgatiladi. Yod olish emas, tushunishga asoslangan ta’limga yo‘naltiriladi. Kelajakda murakkab muammolarni hal qilishga tayyor bo‘ladi.

Asosiy muammolar: Ko‘p darslar faqat darslikdagi savollarga javob topishga qaratilgan. Bola mustaqil fikrlashga undalmaydi. O‘qituvchilarning barchasi ham tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha yetarli bilim va uslubga ega emas. Bolalarga darsda faqat “to‘g‘ri javob” kerak bo‘lgani uchun ular xato qilishdan qo‘rqib, fikr bildirishni istamaydi. Ota-onalar ko‘pincha faqat bahoga e’tibor qaratadi, jarayonga emas.

Nimalar qilish mumkin? (yechimlar): Bolalarga savol berishni o‘rgatish kerak: “Nima uchun?”, “Qanday qilib?”, “Agar shunday bo‘lsa-chi?” kabi savollarni ishlatalish. O‘yinlar orqali fikrlashni rag‘batlantirish: masalan, “agar men bo‘lsam...”, “eng yaxshi yechimni top” kabi rolli vazifalar. Guruhlarda ishlash – bola boshqa bolalar bilan fikr almashadi, o‘rganadi, bahslashadi. Hikoya yoki rasm asosida suhbat – bolalar bir rasm yoki voqeа haqida fikr bildiradi, turli nuqtai nazarlarni eshitadi. O‘qituvchilarni muntazam ravishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan tanishtirib borish zarur. Baholash jarayonini o‘zgartirish: har doim to‘g‘ri javob emas, balki fikrlash jarayoni uchun ham rag‘bat berish.

Oddiy amaliy misollar: Darsda hikoya o‘qilgach, “Agar qahramon boshqa yo‘l tutganida nima bo‘ldi?” degan savol berish. Matematik misollarni yechayotganda “Bu misol real hayotda qayerda ishlataladi?” deb so‘rash. Biror rasm asosida “Nima bo‘lgan deb o‘ylaysan?” deb tasavvur ettirish.

Tanqidiy fikrlash haqida so‘z borganda albatta quyidagi savolga duch kelamiz. Tanqidiy fikrlash dasturining o‘ziga xos xususiyati nimada? Butun insoniyat o‘ylayotgani aniq. Qozoq pedagogik Shakarim Qudayberdiuli shunday deydi insonning yaxshi yashashiga uchta xislat asos bo‘la oladi, ular halol mehnat, komil aql, hamma narsadan ustun turadigan pok qalbdir. Bu fazilatlar insonni tug‘ilgan kundan boshlab tarbiyalaydi. Insonga qimmatli fazilatlarni singdirish tug‘ilgandan boshlanishi kerak. Shaxs kamolotida ota-onalar bilan bir qatorda tarbiyachi va o‘qituvchilar ham muhim rol o‘ynaydi, ya’ni ta’lim tizimi zimmasiga yuklangan yuk yengil emas. Ta’lim tizimiga kirib kelayotgan interfaol usullar, ayniqsa, «O‘qish va yozish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish» loyihasi o‘qituvchilarning faol ijodiy faoliyatini ta’minalashda alohida o‘rin tutadi. Chunki loyiha o‘quvchilarni izlanish, o‘z ustida ishlash yo‘liga solib, o‘qituvchi bilan birga yangi ma’lumotlarni olishga imkon beradi. Tanqidiy fikrlashni qo‘llashda o‘qituvchining roli juda katta u o‘quvchi uchun eng yaxshi bilimni berishga, turli ma’lumotlar bilan bilimini yanada kengaytirib borishga intiladi. Menimcha, eng qimmatli narsa o‘quvchiga tayyor bilim berish emas, balki uni o‘zi egallashi uchun uni ko’nikma bilan qurollantirishdir borishdir. Shundagina o‘quvchi o‘z ustida mustaqil shug‘ullana oladi.

Tanqidiy fikrlash loyihasi orqali maktablarda jiddiy o‘zgarishlar tus oldi. Tahlil qilish, xulosa chiqarish butun dunyodagi o‘quvchilarni va barcha darajadagi o‘qituvchilarni birlashtiradi. Tanqidiy fikrlash loyihasi biz uchun juda muhimdir. Loyiha boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining haqiqiy va doimiy o‘zgarishlarini ta’minalay beradi. Darhaqiqat, tanqidiy fikrlash – axborotlarni o‘zlashtirishdan boshlanadigan va xulosa chiqarish bilan tugallanadigan murakkab o‘ylash jarayonidir. Ta’kidlash joizki, tanqidiy tafakkur-bilish faoliyatining yuqori darjasini sifatida o‘quvchilarda matn bilan ishlash ko‘nikmasini rivojlantirishga, og‘zaki va yozma nutqni egallahashga, mazkur matn bo‘yicha o‘rtoqlari bilan birgalikda harakatda bo‘lishiga qaratilgan pedagogik texnologiya. Tanqidiy fikrlash o‘quv jarayondagi ruhiyatni o‘zgartira oladigan tamoyillar majmuidir, ya’ni mashg‘ulot o‘qituvchi va o‘quvchilarning ijodxonasiiga aylanadi. Tanqidiy fikrlashning tuzilishlari, aqliy faoliyatning umumlashgan usullarining shakllantirish yo‘llarini belgilovchi alohida komponentlarning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etiladi. Shu bilan birga mazkur tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tanqidiy fikrlashning barcha komponentlarini egallahashga yo‘naltirish asosida tizimli ta’limga tayyorlash va shaxsni har tomonlama faollashtirish oldinga suriladi. Bu maqsadlarni tugal konsepsiya sifatida amalga oshirish an’naviy didaktik tizimlarning barcha bo‘g‘inlarini takomillashtirish, shu jumladan, o‘quvchilarning faol tanqidiy tafakkurini shakllantirishning usullari, metodlari va tashkiliy vositalarini ta’minalash uni inson taraqqiyotining turli yosh bosqichlarida chuqur tadqiq etish zaruriyatini talab etadi.

Biz bajarayotgan tanqidiy fikrlash texnologiyasi va an'anaviy darslarni solishtirib, quyidagi xulosaga keldik. Tanqidiy fikrlash texnologiyasidan foydalanganda u doimo yo'naltiradi: guruhlarga bo'linadi, o'quvchilarni matn g'oyasini aniqlashga undaydi, zukkolik bilan bog'liq savollar berish orqali fikrlashni rag'batlantiradi, o'quvchilarga o'z fikrlarini yozishni taklif qiladi, o'z fikrini ifoda etishga yo'naltiradi, o'z fikrlarini erkin bildira oladi natijada o'quvchilarning 70-80 foizi o'qituvchiga qaraganda faol va tez harakat qilishiga olib keladi. O'qituvchi bu texnologiyalardan foydalangan holda o'quvchilarning fanga qiziqishini oshiradi va har bir darsni qiziqarli o'tishga yo'naltiradi. Pedagogik texnologiyalarni tavsiflashda ularning asosiy belgilari-xususiyatlari, g'oyalari, ta'lim tizimida qo'llanilishi, samaradorligi va samaradorligi asos qilib olinadi.

Ko'pincha «tanqidiy fikrlash» atamasi noto'g'ri talqin qilinadi, uning o'rnini ijodiy fikrlash, mantiqiy xulosalar chiqarish, to'g'ri qaror qabul qilish, ma'lumotni tahlil qilish qobiliyati kabi tushunchalar egallaydi. Yuqorida keltirilgan belgilar tanqidiy fikrlash jarayonining tarkibiy qismlaridir. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullarining ko'pligi tufayli hamma narsani sanab o'tish mumkin emas. Shuning uchun ularning eng mashhurlarini sanab o'tish va ulardan samarali foydalanilganlarning tavsifiga to'xtalib o'tish kifoya.

“Hozirgi kunda esabu ta'lim jarayonida nimaga qo'llanishi kerak?“ degan savol ko'pchilikni ya'ni o'qituvchilar va bo'lg'usi yosh pedagoglarni hamda, shu bilan bir qatorda ota-onalarni ham o'ylanitirishi mumkin. Tanqidiy fikrlash jarayonida o'quvchining vaziyatni tahlil qilish va baholab ketish ko'nikmalari shakllanishiga yordam beradi. Biror bir vaziyat borasida mulohaza yuritish, mavjud muammoga turli nuqtai nazardan baho berish qobilyatini shakllantirishda tanqidiy fikrlashning o'rni katta hisoblanadi.

Tanqidiy fikrlash o'quvchilarning fikrlash qobilyatini shakllantirish uchun ta'lim tizimini mustahkamlash muhimligini tan oladi. Bolalarning tanqidiy fikrlash qobiliyati, bir tomondan, faktlarga asoslangan bilimlardan foydalangan holda mulohaza yuritish va ochiq va izlanuvchan tafakkurni qabul qilish demakdir. Biroq, bunga erishish uchun maktablarda tanqidiy fikrlashni yaxshilashlari uchun o'quv dasturlari ko'proq amaliy mashg'ulotlarga tayangan holda integratsiya qilinishi kerak. O'qituvchilar, psixologlar va faylasuflar bu borada bir fikrda bo'lishsa ham tanqidiy fikrlashning ahamiyati, konsepsiysi nimani anglatishi haqida hali ham kelishuv mavjud emas va o'qituvchilarni amaliyatda qo'llash uchun qanday tayyorlanishi kerakligi haqida bahs muzokaralar olib borilmoqda.

Ushbu ko'nikmalar ta'lim jarayoniga to'liq kirib ulgurmagan bo'lsa-da, ba'zi bir maktablarda amalda qo'llanib kelinmoqda. Aniqki, maktabgacha yoshdagি bolalar savol berishni yaxshi ko'rishadi. Buqiziqishdan dalolat beradi, bora-bora uaqlning qiziquvchanligiga, keyinchalik o'z navbatida tanqidiy fikrlashga aylanadi. Ko'p

hollarda maktab hayoti boshlanishi bilanoq, savollar berilishi to‘xtaydi. Faqat javoblar yangraydi. Ammo bu holatda bolalar faqat yangi bilimlarning iste’molchisiga aylanishadi, ammo ular bilimlarning yaratuvchisiga aylanishi kerak.

Ota-onalarga savol: siz bolalaringizga savollar berasizmi? Buishni qilish juda muhim, chunki bolalar, avvalo, oilada, ota-onadan yoki aka-uka va opa-singillardan vafaqat keyin maktabda savol berishni o‘rganadilar.

Bizga ijodiy fikrlash qiziqarli narsalarni yaratish, san’at, ijoddek tuyuladi. Aslida esahar bir inson, bola ijodiy fikrlashni rivojlantirishi kerak, chunki bubog‘liqlik mavjud bo‘limgan joylarda unitopishning qimmatli qobiliyatidir. Shuningdek, buko‘nikma bir vaziyat uchun ko‘plab javob variantlarini o‘ylab topish qobiliyatini vaqayta o‘rganish, ishongan narsangizdan voz kechish vayangi narsalarni topish, o‘rganish qobiliyatini shakllantiradi. Shunchaki bilimning o‘zi hech kimga kerak emas, chunki ham bilim, ham ko‘nikmaga ega bo‘lgan odamlar bor vakelajakda bolalarimiz aynan shunday odamlar bilan raqobatlashadilar. Ham bilim berilishini, ham ko‘nikma va qadriyatlarni rivojlantirishni ta’minlash muhimdir.

XULOSA

Erta yoshdagи bolalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish – bu zamonaviy ta’limning asosiy vazifalaridan biridir. Bugungi kunda o‘z fikrini ochiq aytaligani, mustaqil qaror qabul qila oladigan, yangilikka ochiq va mantiqan fikrlay oladigan shaxslarni tarbiyalash jamiyatimiz taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Tanqidiy fikrlash yosh bolalarda tabiiy ravishda mavjud bo‘lishi mumkin, lekin bu salohiyatni to‘g‘ri rivojlantirish va yo‘naltirish uchun o‘qituvchi va ota-onaning roli nihoyatda katta. Afsuski, an’anaviy ta’lim tizimi bu ko‘nikmani shakllantirishga to‘liq imkon bermaydi. Darslar ko‘pincha yodlash va to‘g‘ri javobni topishga asoslangan bo‘lib, bolalarda savol berish, muammoga turlicha qarash, o‘z fikrini asoslash kabi faoliyatlar yetarlicha rivojlanmaydi.

Tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun o‘quv jarayonida interaktiv yondashuvlar, guruhli ishlar, muammoli vaziyatlar, ijodiy topshiriqlar keng qo‘llanilishi zarur. Har bir dars bolaning faolligini oshirishi, uni o‘ylashga undashi kerak. Bunda o‘qituvchilar o‘z ustida muntazam ishlashi, yangicha metodlarni o‘rganib borishi lozim. Ota-onalar ham bu jarayonda faollik ko‘rsatib, bolalar bilan muloqotda ochiqlik, savol-javob, fikr almashishga e’tibor qaratishlari zarur.

Tanqidiy fikrlash shunchaki bilim emas, balki kundalik hayotda muammolarni hal qilish, to‘g‘ri qaror qabul qilish, boshqalarning fikriga hurmat bilan yondashish, dalil va asosga tayanib bahslashish kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi. Bu esa bolalarning nafaqat maktabdagи, balki butun hayoti davomida muvaffaqiyatli bo‘lishiga yordam beradi.

Shunday ekan, biz – o‘qituvchilar, ota-onalar va ta’lim tizimi vakillari – birgalikda harakat qilgan holda, erta yoshdan boshlab tanqidiy fikrlovchi, faol va ongli

avlodni tarbiyalash uchun barcha sharoitlarni yaratishimiz zarur. Bu bizning bugungi majburiyatimiz, ertangi kun uchun esa sarmoyamizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.1-jild. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat milliy nashriyoti, 2006-yil. 39-bet.
2. Butenko A.V., Xodos E.A. “Taqnidiy fikrlash: usul, nazariya, amaliyot” 2002-yil.
3. Berjanov Q., Musin S. Pedagogika tarixi.-Almaty:mektep. 2009-yil.
4. G'afforova “Mustaqil fikrga o‘rgatish bugungi kunda ta’limning asosiy vazifalaridan biridir” Boshlang‘ich ta’lim jurnalı. 2012-yil 9-son.
5. K.Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G‘ulomova, Sharofat Yo‘ldosheva, Sharafjon Sariyev. “Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent, “NOSIR” nashriyoti, 2009